

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**Bo'lajak o'qituvchining pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish
texnologiyasi pedagogik muammo sifatida.**

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'naliishi S5-PP-22 guruh talabasi

Olimova Sarvinoz Sherzod qizi

Annotatsiya: Maqolada, bo'lajak o'qituvchining ta'limgiz oluvchilar jamoasi bilan ta'limgiz-tarbiya jarayonida muloqot madaniyatini tashkil etishning zamonaviy uslublarini tashkil etish va tatbiq etish to'g'risida so'z yuritiladi. Ayniqsa, bu jarayonda kommunikativ etikaning muhim xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, pedagogik muloqot, zamonaviy muloqot usullari, muloqot etikasi, ta'limgiz oluvchilar, ta'limgiz-tarbiya, kommunikativ qobiliyat, jarayon,tatbiq etish, bo'lajak o'qituvchi.

Аннотация: В статье речь идет об организации и внедрении современных методов организации культуры общения будущего педагога и студенческого коллектива в образовательном процессе. В частности, в этом процессе выделяются важные черты коммуникативной этики.

Ключевые слова: общение, педагогическое общение, современные методы общения, этика общения, обучающиеся, воспитание, коммуникативные навыки, процесс, применение, будущий учитель.

Summary: The article deals with the organization and implementation of modern methods of organizing a culture of communication between the future teacher and the student body in the educational process. In particular, important features of communicative ethics are highlighted in this process.

Keywords: Communication, pedagogical communication, modern methods of communication, communication ethics, learners, education, communication skills, process, application, future teacher.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Insoniyat yaralibdiki, bir biri bilan o'zaro muloqot qilishga intilgan insoniyat ehtiyoji nuqtai nazaridan dastavval muloqot jarayoni turli ovozlar chiqarish, tana harakatlari orqali namoyon qilgan, keyinchalik ma'no anglatuvchi imo-ishoralar bilan o'z fikrini bildirgan. Vaqt o'tib, inson tafakkuri odimlab, bu harakatlar o'z o'rnini so'zlashuv jarayoniga bo'shatib bergan. Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individni shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat ongi taraqqiy etib, o'zaro muloqot jarayonida fikrini so'zlar orqali, hissiy kechinma va emotsiyasini ovoz temblari, artikulyatsiya-diktsiya orqali namoyon etadi. Muloqot usuluning yana bir muhim jihatni aloqaga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati-nutq jarayonida faqat so'zlashuv bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayriboshlashdan iborat. Masalan, muloqaot qilar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan munosabatga kirishamiz. Munosabatning keyingi jihatni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir.

Mahoratli pedagoglar o'qituvchi va o'quvchi jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lif tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi. Jamiyatning yangilanish davrida pedagoglarning muloqot uslublarini rivojlantirishda ro'y berayotgan o'zgarishlarning pedagogik mahoratini ochib berish lozim.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o'z "Meni" atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir.

Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

ularning birgalikdagi faoliyatidir.¹ Insonning muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish kerak.

Bugungi kunga kelib, hayotimizning qaysi jabhasiga nazar solmaylik, chiroyli qilinadigan muomala, to‘g’ri tanlangan muloqot uslubi ish samaradorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Shu asnoda pedagogik muloqot uslublari orqali o‘quvchi o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish, bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Muloqot ham o‘ziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog E.Melibruda² aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun xavodek ahamiyatga egadir. Bolalik va o‘smirlikning davrlarida muloqot ustuvor faoliyatga, ya’ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga vositasiz ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida shakllanadi.

Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn quyidagicha yozgan edi: “Kundalik hayotda insonlar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, biz ularning xarakteriga mo‘ljal olamiz. Chunki biz ularning tanqidiy ma’lumotlarining mohiyatini xuddiki o‘qib ya’ni mag‘zini chaqib chiqamiz va shu holatda matnda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihatni mavjud bo‘lgan mazmunini aniqlaymiz”.

Muloqot-odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyoj va talablaridan kelib chiqadigan bog’lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali holatidir. Muloqot birgalikdagi faoliyat olib boruvchilar o‘rtasida o‘zaro fikrni almashish natijasida yuzaga keladi.

Muloqot - yunoncha so‘zdan olingan bo’lib, so’zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma’nosmi bildiradi hamda ikki yoki undan bir nechta ortiq kishilarning so’zlashuvida paydo bo‘ladi.³

Muloqot – axborot jarayonidir. Axborot ikki yo’nalishda boshqarish subyektidan (pedagogdan) boshqarish obyektiga (o‘quvchilarga) boradi va aksincha – obyektdan subyektga boradi.⁴

Muloqot-odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog’lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot almashishni o‘z ichiga

¹ <http://arm.sammoi.uz/library/download/482>

² Мелибруда, Е. Я – Ты – Мы: Психологические возможности улучшения общения : пер. с польск. / Е. Мелибруда. – М.: Прогресс, 1986. – 256 с.

³ A.Xoliquov Pedagogik mahorat O’quv qo’llanma Toshkent «IQTISOD-MOLIY A» 2010 www.ziyouz.com kutubxonasi 117-bet

⁴ L.I.Ruvinskiy tahriri ostida “Tarbiyaviy ish metodikas” Toshkent “O’qituvchi” 1991 y. 27-bet.

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

oladi. Bunda munosabatning pedagogik jihatni hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar.⁵

Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlardan foydalaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinishi lozim. Insonni temperament xarakter xususiyatlari qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida muloqotning o'rni ta'rifsiz. Oddiy ko'nikma ("to'g'ri o'tir, choyingni ich, qo'lingni yuv, joyingga bor, salom ber") kabilarni ham muloqot orqali o'rgatiladi.

Muloqot-odamlar o'rtasida yakdillikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlarning rivojlanishini ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) hankorlikda faoliyat olib boruvchilar o'rtasida axborot almashishni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning pedagogik jihatni hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. [8:5]

Pedagogik muloqot — pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiyaning jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv- tarbiyaviy ta'sir qiladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishini asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. [8:59]

L.M. Mitina pedagogik muloqotni pedagog ishining ko'p qamrovli makonining bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lgan uch qismdan: pedagogning o'zligi, pedagogik faoliyati va pedagogik munosabatidan iborat jihatlaridan biri deb baholaydi. Ushbu uch yo'naliш, talaba shaxsini rivojlantirishning global vazifasi bilan birlashtirilgan [6:27]. Muloqot uslublarining rivojlanish istiqbollariga o'zining hissasini qo'shgan L.M. Mitina fikriga qaraganda pedagog kadrlarda o'qituvchilik mahorati, pedagogik qobiliyati va nazokati bo'lsa, darslar vaqtida duch keladigan jarayonlarga nisbatan kreativ yondashish bo'lsa ta'lim oluvchilar jamoasiga kirishish osonlashadi. Bu esa beriladigan ma'lumotlarni talabalar o'zlashtirishi anchayin ko'zda ko'rinarli nattija beradi.

A.A. Leontievning ta'rifidagi pedagogik muloqot "...o'quvchining motivatsiyasi va ta'lim faoliyatining ijodiy xarakterini rivojlantirish, o'quvchining shaxsini to'g'ri shakllantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadigan o'qituvchi (va kengroq ma'noda - o'qituvchilar jamoasi) o'quv jarayonida maktab o'quvchilari

⁵ M. MAXSUDOVA MULOQOT PSIXOLOGIYASI O'quv qo'llanma TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2006
www.ziyouz.com kutubxonasi

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

bilan aloqador. O‘rganish uchun qulay hissiy iqlimni ta‘minlaydi (xususan, "psixologik to‘sinq" paydo bo‘lishining oldini oladi). Bolalar jamoasidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqarishni ta‘minlaydi va ta‘lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlaridan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi"⁶

V.A. Slastenin pedagogik jarayonda muloqotni ta‘lim muammolarini bartaraf etish vositasi deb hisoblaydi; ta‘lim jarayonida ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash; o‘qitish va ta‘limning muvaffaqiyatini belgilaydigan pedagog va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etish usulidir. Shu nuqtai nazardan kasbiy va pedagogik muloqot mazmuniga quyidagilar o‘z ichiga oladi:

- ma'lumot almashish;
- ta‘lim ta’sirini ta‘minlash;
- kommunikativ aloqani vositalar yordamida munosabatlarni tashkil etish⁷

Pedagog ta‘lim oluvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmatni e’tiborni kutadi. O‘quvchilar ham o‘qituvchilaridan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta’sirming samarali yo‘li hisoblanib, tajribali pedagog kadrlar bolaning o‘z-o‘zini hurmat qilishiga asoslangan holda muloqotni tashkil etadilar va shu asnoda o‘zaro muloqotini amalga oshiradilar.⁸

Pedagogik muloqot – bo‘lajak o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog’lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali holatidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat olib boruvchilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlashda o‘z aksini topadi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatni hisobga olinadi. Insonlaraloqaga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar.

Muloqotning pedagogik faoliyatida usullari, qoidalari hamda texnikalari bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik muloqot usuliini to‘g’ri tanlashga zamin bo‘ladi.⁹

Pedagogik muloqot - bu o‘qituvchining ta‘lim oluvchilar bilan dars davomida qolaversa, darsdan keyingi faoliyatida o‘ziga qulay bo‘lgan psixologik holatni vujudga keltirib, yaxshi ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyatni yaratib

⁶ A.A. Leontyev Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y 20-bet

⁷ V. A. Slastenin.va boshq. / Pedagogika: darslik, o‘quv qo‘llanma. M.: Akademiya, 2002 y. 559-560-bet

⁸ Kan-Kalik “O‘qituvchi pedagogik aloqa to‘g’risida: o‘qituvchi uchun kitob” 1987 y.

⁹ Kan-Kalik “O‘qituvchi pedagogik aloqa to‘g’risida: o‘qituvchi uchun kitob” 1987 y. 59-bet

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

beruvchi kasbiy munosabatidir.¹⁰ Pedagogik muloqot mazmuni va shakllari nisbatan qat'iy tartibga solingan va uning ishtirokchilarining roli pozitsiyalari aniq belgilangan.

V.A. Kan-Kalik pedagogik muloqotni "pedagogik jarayonning maqsadlarini va vazifalarini amalga oshirishni ifodalaydigan, pedagoglar va ta'lism oluvchilar o'rtaсидаги ijtimoiy-psixologik o'zaro munosabatlarni tashkil etishni boshqaradigan texnika va usullar tizimi"¹¹ sifatida ta'riflaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi Qonunida kasb tanlashga doir motivlar, kasbga tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorati bilan cheklanib qolmaslik, balki endigi bo'ladigan pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish muhim ahamiyat ekanligi ta'kidlanadi.

Mamlakatimizda o'qituvchilik kasbi vakillarining o'ziga xos etnopsixologik xislatlari, qobiliyatları, fazilatları ishning uslubi, pedagogik mahoratning sirlarini amalga oshirish yo'llari, insonlararo muloqot madaniyatidan turli davrlarda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Pedagogik muloqot — pedagogik faoliyatning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va ta'lism oluvchilar ta'lism-tarbiya jarayonidagi professional muloqot usuli bo'lib, unda ma'lumotni almashinadi va o'quvchilarga o'quv- tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Bunda ikki taraflama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida qaraladi, o'zaro hurmatga va ishonchga xizmat qiladi. Pedagog ta'lism oluvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmatni kutadi. O'quvchilar ham o'qituvchidan hurmatni va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta'sirning foydali yo'li bo'lib, malakali pedagoglar bolaning o'z-o'zini hurmat qilishiga asoslangan holatda munosabatlarni tashkil qiladilar va shu yo'sinda o'zaro munosabatlami amalga oshiradilar.¹²

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan dars davomida va darsdan keyingi faoliyatda o'zi uchun mos bo'lgan psixologik muhitni vujudga

¹⁰ A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y 118-bet

¹¹ Kan-Kalik "O'qituvchi pedagogik aloqa to'g'risida: o'qituvchi uchun kitob" 1987 y. 3-bet

¹² M. MAXSUDOVA "MULOQOT PSIXOLOGIYASI" O'quv qo'llanma TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2006

www.ziyouz.com kutubxonasi 57-bet

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

keltirib, ijobjiy-ruhiy holatni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.¹³

Pedagogik muloqotga qaraydigan bo'lsak, tuzilishi jihatidan pedagog ijodkorligining noyob ko'rinishi hisoblanadi. Pedagoglar o'qituvchining ilmi toliblar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy ishlanmalarida, bayon etgan bo'lsalar-da, muloqot avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni aytish joizki, oliy ta'lim muassasalarda tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchining pedagogik jaraonida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bu pedagogik muloqotning yaxlit tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, shu jihatdan qaraganda aynan pedagogik muloqotda ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgandir.

Pedagogik muloqotning dastlabki vaqtlaridayoq o'qituvchi tanlangan ta'lim metod va usullaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashi, talabalarning umumiy kayfiyati, ulardag'i ijodkorlik va ishchanlik holatini his qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizzxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped.fanlari dokt. Ilmiy dar.uchun diss. – T., 2007
3. Kan-Kalik "O'qituvchi pedagogik aloqa to'g'risida: o'qituvchi uchun kitob" 1987 y.
4. Leontyev A.A. Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y.
5. Melibruda E.Y. – "Muloqotni yaxshilash uchun psixologik imkoniyatlar: tarjima. Polshadan. / E. Melibruda. - M.: Taraqqiyot, 1986 y.
6. Mitina L.M. "Mehnat psixologiyasi va o'qituvchining malakasini oshirish". M.: Akademiya, 2004.

¹³ A.Xoliqov Pedagogik mahorat O'quv qo'llanma Toshkent «IQTISOD-MOLIY A» 2010 www.ziyouz.com kutubxonasi 118-bet

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

7. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012.
8. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y.

Internet ma'lumotlari:

1. www.Uza.uz
2. www.ziyouz.com